

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 10 - noyabr

394-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tabirlari to'g'risida"gi PQ-355-sonli qarori to'g'risida

Mamlakatimizda professional futbolchilarni shakllantirish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, buning uchun futbol-ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish, xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol rivojlangan davlatlar bilan raqobat qila oladigan trener, hakam va boshqa mutaxassislarni tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tabirlari to'g'risida"gi PQ-355-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tabirlari to'g'risida"gi PQ-355-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimida:

Milliy futbol markazi,

Futbol bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktabi negizida Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi,

Sport tibbiyoti va rehabilitatsiyasi markazi tashkil etilganligini;

b) O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy tadqiqot markazi Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi etib, Respublika bolalar va o‘smirlar futbol akademiyasi – Respublika futbol akademiyasi etib qayta nomlanganligi;

Milliy futbol markazi tuzulmasiga:

Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi,

Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, Respublika futbol akademiyasi,

Sport tibbiyoti va rehabilitatsiyasi markazi kiritilganligi;

d) O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining hududiy futbol akademiyalari faoliyatini 2023-2025-yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

e) hududiy futbol akademiyalari:

yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan davlat sport-ta’lim muassasasi hisoblanadi va ularning faoliyati futbol bo‘yicha eng iqtidorli yoshlarni eng avvalo futbol maktablari, nodavlat futbol klublari va boshqa futbol-ta’lim muassasalaridan tanlab olish hamda ularni professional tayyorlash orqali Respublika futbol akademiyasi va terma jamoalariga asosiy nomzodlarni yetkazib berishga yo‘naltirishi;

2024/2025-o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilarning umumiy kontingenti 154 nafarni tashkil etib, ular 12-18 yosh toifalaridan iborat bo‘lishi;

huzurida sport klubi tashkil etilishi hamda respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etishini ta’minlashi belgilanganligi;

f) hududiy futbol akademiyalari faoliyatini rivojlantirishning qo‘shimcha yo‘nalishlari etib:

hududiy futbol akademiyasi uchun zarur sport infratuzilmasini yaratish (3 ta tabiiy, 1 ta sun’iy qoplamali futbol maydoni, mini-futbol, trenajyor va gimnastika zallarini o‘z ichiga olgan 24x60 o‘lchamli yopiq maneji, 100 o‘rinli faollar zali, 6x15 o‘lchamli ixcham suzish havzasi, 154 o‘rinli yotoqxona, 8 ta o‘quv xonasi, sport tibbiyoti va rehabilitatsiya xonasi, 2 ta ma’muriy xona va 100 o‘rinli oshxona);

futbol-ta’lim tizimining barcha bosqichlarini to‘liq raqamlashtirish orqali inson aralashuvini cheklash, futbolchi-o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar asosida saralashni (seleksiya) yo‘lga qo‘yish;

yagona yondashuv asosida futbolchilarni tayyorlashning ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan ilmiy va metodik asoslarini tatbiq etish va uzluksiz yangilab borish;

faoliyatiga reyting baholash tizimini joriy etish, belgilangan minimal talablarni oshirish belgilanganligi;

g) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

professional futboldagi faoliyatini yakunlagan futbolchi va mutaxassislariga O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining ijobiy xulosasi asosida ularning xususiy sektorda amalga oshiradigan futbolni rivojlantirish loyihalari uchun, istisno tariqasida, Markaziy bank asosiy stavkasida "Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ, "Asakabank" AJ va "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan milliy valyutada 1,5 milliard so'mgacha 5 yildan kam bo'lmagan muddatga imtiyozli kredit ajratilishi;

mazkur kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 5 foizlik punktidan yuqori qismini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etilishi;

hududiy futbol akademiyalari bino-inshootlari hamda ularning hududidagi bo'sh turgan yer maydonlarida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qonunchilikda belgilangan tartibda maqsadli futbol loyihalarini amalga oshirishga ruxsat berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining Qoraqalpog'iston futbol akademiyasi faoliyatini 2023-2025-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari:

futbolni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni joylarda to'laqonli amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi;

2024-yil sentabr oyida O'zbekistonda futzal bo'yicha Jahon chempionati o'tkazilishi munosabati bilan:

hududlarda futzal jamoalarini tashkil etadi, shu jumladan professional futbol klublari huzuridagi futzal bo'yicha asosiy, yoshlar va ayollar jamoalari faoliyatini yo'lga qo'ysin;

ushbu jamoalar uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini yaratadi, ularni O'zbekistan futbol assotsiatsiyasi tomonidan belgilangan talablar asosida

moliyalashtirilishini ta'minlasin;

futzal jamoalarining respublika miqiyosdagi musobaqalarda muntazam ishtirok etishi choralari ko'rsin;

2025-yil yakuniga qadar O'zbekistan Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida hamda mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismi va homiylik mablag'lari hisobidan hududiy futbol akademiyasi faoliyati uchun zarur bo'lgan sport infratuzilmasini yaratsin hamda ularni zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlash yuzasidan taklif kiritsin;

Nukus shahar va tumanlarda futbolni rivojlantirish, uning infratuzilmasini yaxshilash uchun mahalliy budjetning qo'shimcha mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag' ajratilishini ta'minlasin;

2023-yil 31-dekabr qadar hududlardagi barcha stadion va futbol maydonlarini xatlovdan o'tkazib, ta'lim va sport tashkilotlari hamda egasi noma'lum stadion va futbol maydonlari sport faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanilishini taqiqlashni hamda ularni ta'mirlash va maqsadli foydalanilishini tashkil etsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov):

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (G.Kojabaeva), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (N.Kayupov) bilan birgalikda 2024/2025-o'quv yilidan boshlab mini-futbol infratuzilmalari mavjud ta'lim tashkilotlarida sport seksiyalari faoliyatini, ular o'rtasida tizimli musobaqalar o'tkazilishini yo'lga qo'ysin;

hududiy futbol akademiyasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan davlat sport-ta'lim muassasasi qilib belgilanganligini inobatga olib, uning faoliyati futbol bo'yicha eng iqtidorli yoshlarni avvalo futbol maktablari, nodavlat futbol klublari va boshqa futbol-ta'lim muassasalaridan tanlab olish hamda ularni professional tayyorlash orqali Respublika futbol akademiyasi va terma jamoalarga asosiy nomzodlarni etkazib berishga yo'naltirilishini tashkil qilsin;

2024/2025-o'quv yilidan boshlab o'quvchilarining umumiy kontingenti 154 nafarni tashkil etib, ular 12-18 yosh toifalaridan iborat bo'lishini inobatga olsin;

futbol akademiyasi huzurida sport klubini tashkil etsin hamda respublika va xalqaro miqiyosdagi musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlasin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (R.Sultanov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (G.Kojabaeva), Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (N.Kayupov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari 2025-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ta‘lim tashkilotlarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilishda mini-futbol maydonlari tashkil qilinishini inobatga olsin hamda belgilangan tartibda zarur mablag‘ar ajratilishi yuzasidan takliflarini kiritib borsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Bekmuratov), Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi (Q.Bekbauliev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog‘iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov)ga mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar, brifinglar, tematik teleko‘rsatuvlarni tashkil etish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari B.Otemuratov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 10-noyabrda
394-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston futbol assotsiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi faoliyatini
2023-2025-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha**

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r.	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.	1. Futbol akademiyasini xatlovdan o'tkazish bo'yicha manfaatdor idoralar va tashkilotlardan iborat ishchi guruhni tuzish. 2. Xatlov natijalari bo'yicha futbol akademiyalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirishni o'z ichiga olgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	-	2023-yil noyabr-dekabr	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (R.Sultanov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari

T/r.	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi infratuzilmasini mustahkamlash.	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi faoliyati uchun zarur bo'lgan sport infratuzilmasini yaratish hamda ularni zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlash. Bunda, futbol akademiyasi faoliyati uchun zarur bo'lgan sport infratuzilmasini yaratish (3 ta tabiiy, 1 ta sun'iy qoplamali futbol maydoni, yopiq mini-futbol maneji, 6x15 o'lchamli ixcham suzish havzasi, 154 o'rinli yotoqxonasi, 8 ta o'quv xonasi, 2 ta ma'muriy xona, 100 o'rinli oshxona, trenajyor va gimnastika zallari va 50 o'rinli faollar zali).</p> <p>2. Qurilish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish grafiklarini ishlab chiqish, tasdiqlash va monitoring qilish.</p> <p>3. Qurilish ishlarini yakunlash, topshirish va qabul qilish.</p>	Davlat budjeti, mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismi va qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa mablag'lar	2024-2025-yillar davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (R.Sultanov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari

T/r.	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi faoliyati bo'yicha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi jamoalari uchun yillik ish-rejalar tuzish, samaradorlik strategiyasini ishlab chiqish;</p> <p>2. Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi trenerlari faoliyatini monitoring qilib borish.</p> <p>3. Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasining o'yin uslubini va undan kelib chiqib akademiya jamoalari uchun tayyorgarlik bosqichi rejalarini ishlab chiqish.</p> <p>4. Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi jamoasining asosiy o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish, respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorlash va ushbu musobaqalarda ishtirokini ta'minlash.</p>	Mahalliy budjet mablag'lari	<p>2024-yil avgust</p> <p>2024/2025-o'quv yilidan boshlab doimiy</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari</p>

T/r.	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasi futbolchilarining jismoniy holati va rivojlanishini doimiy nazorat qilib borish hamda ularga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish.	<p>1. Futbol akademiyasining sport tibbiyoti va reabilitatsiya xonalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, shu jumladan texnika va tibbiy uskunalar bilan ta'minlash. Bunda, xarid qilinadigan tibbiy uskunalarining sport tibbiyoti va reabilitatsiya xonalariga muvofiqligini inobatga olish.</p> <p>2. Sport tibbiyoti va reabilitatsiya xonalarini "Raqamli Rentgen", "Tredmil EKG" va boshqa zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash.</p> <p>3. Sport tibbiyoti va reabilitatsiya xonalarida futbolchilarda o'tkir, surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolashni tashkil etish.</p>	Davlat budjeti, mahalliy budjet mablag'lari	2025-yil avgust 2025-yildan boshlab doimiy	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Sog'liqni saqlash vazirligi (M.Qurbanov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (R.Sultanov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi futbol akademiyasida sport klublarini tashkil etish.	Futbol akademiyalarining bitiruv futbolchilarini sport klubi a'zosiga aylantirish, ulardan 1-liga jamoasini tashkil qilish.	Mahalliy budjet mablag'lari	2024-yil aprel	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Allanazarov), Qoraqalpog'iston futbol assotsiatsiyasi (I.Ibragimov)

